



MAKTAB DARSLIKLARIDA O'ZBEK TILI ME'YORLARINING O'RGATILISH SHAKLLARI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8037114>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2023

Accepted: 13th June 2023

Online: 14th June 2023

KEY WORDS

Aksentologik me'yor, uslubiy me'yor, punktuatsion me'yor, grafik me'yor, metodika, fanlararo integratsiya, kundalik va normalangan talaffuz shakllari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktab darsliklarida o'zbek tili me'yorlarining o'rgatilish shakllari yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, maktab o'quvchilatrining boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan me'yor shakllaridan foydalanish hamda yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan usul va tavsiyalar ifodaviyligi haqida fikr yuritilgan.

Ona tili darslarida o'quvchilarga bilim berishdan tashqari, ularning ona tilida qo'llovchi so'z va birikmalarning mazmun jihatdan to'g'ri qo'llay bilishi katta ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarning talaffuz me'yorlariga birinchi navbatda e'tior qratishimiz lozim. Bunga sabab, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bir vaqtning o'zida ingliz, rus va o'zbek tillarini o'rganishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tilning o'z talaffuz qoidalari va jaranglilik funksiyalaridan kelib chiqqan holatda o'rganilishini inobatga olgan holatda o'zbek adabiy tilining birinchi o'ring qo'yilishi, shuningdek, o'zbek tilidagi me'yorlarni mukammal bilishi lozim ekanligi bilan farqlanadi. "Me'yor – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanilish holati va imkoniyatidir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlarga amal; qilinadi:

1. Talaffuz (orfoepik) me'yor;
2. Yozuv(grafik) me'yor;
3. Fonetik me'yor;
4. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'yish) me'yor;
5. Imloviy me'yor;
6. Gramatik (morfologik, sintaktik) me'yor;
7. So'z yasash me'yor;
8. Uslubiy me'yorlar;
9. Punktuatsion me'yor.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa oddiy so'zlashuv uslubidir".[1]



Haqiqatdan ham, yuqorida qayd etilgan me'yorlarning to'g'ri qo'llanilishi natijasida kishilar nutqiy faoliyatida to'g'rilik, ravonlik va ifodaviyliuk kabilar yorqin tarzda namoyon bo'la boshlaydi. Shundan kelib chiqib, maktab darsliklari yuzasidan o'quvchi-yoshlarga o'zbek tili me'yorlarining o'rgatilishida ma'lumbir texnika va vositalarning to'g'ri va ravon tarzda o'rgatilishi uchun maxsus belgilangan metodlar ishlab chiqilgan yoki yo'naltirilgan. Misol uchun: Imloviy va gramatik me'yorlarning maktab darsliklarida o'rganilishi keng jabhada amalga oshiriladi. Maktab darsliklarida keltirilgan darsliklar va mashqlarning bajarilishida imloviy savodxonlik, so'zlarning ma'noviy jihatdan qo'llanilishi, ifodalanishi yuzasidan sinf rahbarlari yoki fan o'qituvchilari tomonidan yetarlicha xaborot shakllarining berilishi ham imloviy me'yor qoidalarning muqobil va namunaviy tartibda ifodalanishiga imkon yaratib beradi. Ko'p holatlarda mashqlar tarkibida tushib qolgan so'zlarni to'ldiring, izohlang yoki muqobil variantini yozing va shunga o'xshash mashqlarning berilishi bu imloviy me'yorlarning ifodalanishi bilan amalga oshiriladi deyish mumkin. "Adabiy nutqning muayyan qoidalarga solingan normalarga egaligi nutq tipining o'ziga xos mohiyatidan darak beradi. Adabiy talaffuz — ushbu tilda gaplashuvchi barcha kishilar uchun umumiy va qonuniy bo'lgan talaffuzdir. Adabiy talaffuz talaffuzning milliy til doirasida mavjud bo'lgan barcha boshqa ko'rinishlaridan ustun turadi va namunali hisoblanadi. Shuning uchun ham, odatda, milliy til doirasidagi talaffuz ko'rinishlari ikki uslubga bo'inadi: 1) normalangan adabiy talaffuz; 2) kundalik so'zlashuv talaffuzi.

O'quvchi-yoshlarning talaffuz me'yorlarini rivojlantirish masalasining bosh bo'g'ini qilib boshlang'ich talim shaklining mukammal tarzda ifodalanilishi ham ahamiyatli ekanini izohlab o'tilgan. Gramatik me'yorlarning imloviy me'yorlar bilan aloqadorlikda o'quvchi – yoshlarning imloviy savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi ta'lim shakllarining metodlardan umummilliy birlashma sifatida ifodalanishi ham o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Shuni aytish mumkinki, so'z yasalishi va punktuatsion belgilarning to'g'ri tarzda qo'llanilishi ham maktab darsliklarida o'zbek tili me'yorlarining o'rgatilish shakllari bilan ifodalaniladi. Bunda aksentologik me'yorning ham ahamiyati katta ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Kundalik so'zlashuv talaffuzi dialekt va shevalarda, oddiy xalq vakillarining kundalik so'zlashuv jarayonlarida keng tarqalgan. Adabiy talaffuz deyilganda birinchi uslub — normalangan talaffuz tushuniladi. Til tarixida adabiy til har doim mavjud boimagandek, adabiy talaffuz ham adabiy til tarixida doimo bo'lgan emas".[2] Adabiy til me'yoprlariga riopya qilgan holatda so'zlash, muloqot qilish shakli kuishining jamiyat hayotidagi munosabati bilan ham izohlaniladi. Shuning uchun normalangan talaffuz shaki va kundalik so'zlashuv talaffuzi bilan izohlaniladi. Shuningdek, so'zlashuv shakllarining muqobil variantlarini to'g'ri tanlash va bu borada dialektal so'zlashuv vositalaridan foydalanish yoki foydalanmaslik so'zlashuvchining o'zi bilan ifodalaniladi. Buning sababi, kishilar nutqiy faoliyati va ushbu nutq shakllarining ifodalanishi bilan ham xarakterlanadi deyish mumkin. Maktab darsliklarida o'zbek tili me'yorlarining ifodalanish shakllari darsliklar, o'quv qo'llanmalar va shu kabi vositalar bilan izohlaniladi.

"Adabiy til me'yorlari esa bir qancha turlarga bo'linadi. Jumladan, leksik ya'ni so'z qo'llash me'yorlaridir. Leksik me'yorda adabiy til me'yoriga qabul qilingan so'zlarni o'qituvchi qo'llashi kerak. Jumladan adabiy tilda "yalpiz" so'zi bo'la turib uni o'qituvchi shevada "halila" yoki "pedana" deb qo'llasa, bu no'to'g'ri bo'ladi. Yoki shevaga oid so'zlardan bola so'zini



“bacha” tarzida qo’llasa ham dars jarayonida bu noto’g’ri hisoblanadi. Keyingi me’yor- bu, orfoepik(talaffuz) me’yoridir. Ma’lumki, talaffuz me’yorlarida urg’u, to’xtam va ohang asosiy o’rinni egallaydi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining talaffuz me’yorlariga rioya qilishi esa, juda ham ahamiyatli. Sababi, boshlang’ich sinf darsliklaridagi she’r, hikoya, ertaklardagi voqealarni aynan talaffuz me’yorlariga rioya qilib o’qilsagina, uning badiiy qimmatini oshadi hamda o’quvchiga estetik zavq beradi”. [3]

References:

1. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o’zbek tili. Nukus “Nur-Turan-Print” 2023.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. Toshkent. Yangi nashr – 2008
3. Rahimjonova Sarvinoz To’lqinovna. “Boshlang’ich ta’limda o’qituvchi nutqining o’rni” maqola. Science and innovation -2022